

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduveiyev | |
| Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati | 6 |
| K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov | |
| Landshaftlar vertikal tabaqlanishini matematik modellashtirish..... | 15 |
| Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov | |
| Ekoturizim resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida) | 22 |
| T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbanov, K.O.Daljanov | |
| Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari | 30 |
| O.T.Mirzamahmudov | |
| Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari | 36 |
| O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva | |
| Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri | 41 |
| G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev | |
| Xavfli meteorologik hodisalarining takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) .. | 45 |
| Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov | |
| Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish | 54 |
| R.Y.Xoliqov | |
| Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'ttasidagi geokimyoiy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri..... | 61 |
| K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov | |
| Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari..... | 64 |
| Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov | |
| Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash | 68 |
| D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov | |
| Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari | 81 |
| K.M.Xakimov | |
| Antroponomik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida | 87 |
| Y.B.Raxmatov | |
| Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari | 93 |
| R.T.Pirnazarov | |
| Shohimardonsov havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari | 96 |
| P.R.Qurbanov | |
| Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlari..... | 103 |
| H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva | |
| Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi | 113 |
| Z.X.Madaminov | |
| Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish | 118 |
| E.G'.Mahkamov | |
| Farg'ona vodiyisida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari..... | 122 |
| Z.A.Temirov | |
| Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'ttasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish..... | 128 |
| M.M.Avezov, A.M.Elmurotova | |
| Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiyl tabiiy geografik tavsif | 135 |
| M.R.Usmanov | |
| O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar..... | 140 |

**MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDDULAR TIZIMINING REPREZENTATIVLIGI VA
SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**ОЦЕНКА РЕПРЕЗЕНТАТИВНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ ОХРАНЯЕМЫХ
ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЙ**

**ASSESSMENT OF REPRESENTATIVENESS AND EFFECTIVENESS OF THE SYSTEM OF
PROTECTED NATURAL AREAS**

Ahmadaliyev Yusufjon Ismoilovich¹

¹Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasи professori, g.f.d.

Abdug'aniyev Olimjon Isomiddinovich²

²Farg'ona davlat universiteti geografiya kafedrasи dotsenti, g.f.d.

Eminov Jamshidbek G'ayratjon o'g'li³

³Farg'ona davlat universiteti geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH) tarmoqlarining reprezentativligini baholashdagи geoekologik yondashuv va usullarning qisqacha tahlili keltirilgan bo'lib, Farg'ona vodiysining O'zbekiston Respublikasiga qarashli ma'muriy tumanlari doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari berilgan. Shu bois, METHlarning mavjud tarmog'i ma'muriy tumanlar bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi: qamrab olish darajasi, tabiatni muhofaza qilish maqomiga ega obyekt va hududlar bilan ta'minlanganligi hamda tabiiy geokomplekslarni saqlanganlik darajasi.

Аннотация

В статье представлен краткий анализ геоэкологического подхода и методов оценки репрезентативности сети охраняемых природных территорий (ОПТ), а также результаты исследований, проведенных на территории административных районов Ферганской долины Республики Узбекистан. Поэтому существующая сеть ОПТ была проанализирована по административным районам на основе следующих показателей: уровень охвата, сохранности природных геосистем и обеспеченности территории природоохранными объектами.

Abstract

The article presents a brief analysis of the geoecological approach and methods for assessing the representativeness of a network of protected natural areas (PAs), as well as the results of studies conducted in the administrative regions of the Fergana Valley of the Republic of Uzbekistan. Therefore, the existing network of protected areas was analyzed by administrative districts based on the following indicators: level of coverage, preservation of natural geosystems and provision of the territory with environmental objects.

Kalit so'zlar: muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, biologik va landshaft xilma-xilligi, geoekologik baholash, reprezentativlik, optimallashtirish, tarmoq, tizim.

Ключевые слова: охраняемые природные территории, биологическое и ландшафтное разнообразие, геоэкологическая оценка, репрезентативность, оптимизация, сеть, система.

Key words: protected natural areas, biological and landscape diversity, geoecological assessment, representativeness, optimization, network, system.

KIRISH

Jahon miqyosida biologik va landshaft xilma-xilligi degradatsiyasi insoniyatning yashash muhiti va hayotiy zarur bo'lgan resurslar ta'minotini izdan chiqaruvchi jiddiy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro miqyosda bu borada bir qator siyosi va iqtisodiy majburiyatlar belgilanishiga qaramasdan biologik va landshaft xilma-xilligi(BLX)ni sifat va miqdor jihatdan qisqarishi davom etmoqda. Ayniqsa, 2010-2020-yillarga mo'ljalangan Aytı strategik rejasida belgilangan maqsad va vazifalar (quruqlik ekotizimlarini 17%, qirg'oq va dengiz hududlarini 10% muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida qamrab olish) barcha mamlakatlarda birday amalga oshirilmadi.

Shu bois, «Biologik xilma-xillik to'g'risida»gi Konvensiyaga a'zo mamlakatlarning 14-yig'ilishida 2050-yilgacha dunyo miqyosida muhofaza etiladigan tabiiy hudud(METH)lar tizimini yanada kengaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab olindi¹. METHlar tizimini tashkil etishdan

¹ Конференция Сторон Конвенции О Биологическом Разнообразии. Четырнадцатое Совещание. Шарм-Эш-Шейх, Египет, 17-29 ноября 2018.

maqsad inson va tabiat o'tasidagi munosabatlarda uyg'un muvozanatni ta'minlash, tabiat komplekslari va ayrim obyektlarni muhofaza qilish, BLX saqlash hamda aholini qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir [4].

O'zbekiston Respublikasining "Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha qabul qilingan yangi Strategiyasi"da² METHlar umumiy maydonini 2028-yilga kelib mamlakatning 17% hududini qamrab olishi ko'zda tutilgan. Bu borada 2021-2028-yillarda METHlar tizimini rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha davlat dasturi qabul qilindi. Unda Respublikamizning barcha ma'muriy-hududiy birliklaridagi mavjud METHlar maydonini kengaytirish va yangilarini tashkil etish maqsadida er uchastkalarni ajratish, o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish hamda davlat kadastriga kiritilishini ta'minlash belgilab qo'yilgan. Mazkur vazifalarning echimida, ayniqsa, tabiiy landshaftlar degradatsiyasi kuchayib borayotgan hududlarda BLXni saqlash hamda ulardan barqaror foydalanishni ta'minlashning ishonchli yo'llaridan biri deb e'tirof etilgan METHlarni tizim darajasida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

METHlar tizimini kengaytirish va takomillashtirish uchun ularni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan kompleks baholash maqsadga muvofiqdir. Bunday baholash jarayoni keng qamrovli va murakkab bo'lib, barcha soha mutaxassislarni qanoatlanuvchi yagona mezonlar va usullar ishlab chiqilmagan. Dunyo miqyosida, ayniqsa, mintaqaviy darajadagi METHlar tizimini yaxlitligini hamda BLXni saqlab qolishda muhim bo'lgan hududlar muhofazasini ta'minlash uchun qo'llanilayotgan ko'plab mezonlarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Bu masalada, A.A.Tishkov ta'kidlaganidek, «Как устранить данную проблему, исходя из сложившихся традитсий территориальной охраны природы и позитивного опыта соседних стран, должна думать география, которая имеет весь необходимый для этого методологический и методический арсенал» [14, 19-20-b].

METHlar tizimini tashkil etish bo'yicha asosiy mezon va tamoyillar Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya (1992) va Pan-Evropa strategiyasida (1995) ishlab chiqilgan [3, 5, 6]. Ushbu konvensiya va strategiyada BLXni saqlash va undan barqaror foydalanish, kamyob va noyob biologik turlarni muhofazasini ta'minlash, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur'atlarini pasaytirish, ekoturizmni rivojlantirish kabi mezonlar METHlar tizimini rivojlantirishda ustuvor ekanligi e'tirof etilgan.

METHlar tiziminining samaradorligini baholash bo'yicha N.F.Reymers va F.R.SHtil'mark (1978), M.Xokings, S.Stolton, N.Dadli (2004), M.N.Brilevskiy, N.V.Gagina, E.V.Morozov (2009), A.A.Chibilyov (2012), E.A.Ivanitscheva (2012), P.YU.Sannikov (2014), S.M.Tokarchuk (2016), M.S.Stishov, N.Dadli (2018), T.YU.Xibuxina (2018), A.A.Blaekbern (2018) kabi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar va yondashuvlarning mintaqaviy hususiyatlarini e'tiborga oluvchi jihatlari tahlil qilindi.

Yuqorida keltirilgan baholash mezonlari Farg'ona vodiysidagi tipik va noyob tabiiy geokomplekslarni aniqlash hamda METHlar tizimdag'i reprezentativlikni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon bermaydi. METHlar tizimini tashkil etishda mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarini ham aniqlash muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv METHlar tarmog'ini tizim darjasida takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalarni davlatning ekologik siyosatidagi ustuvor yo'nalish sifatida bosh o'ringa olib chiqadi chiqadi.

Farg'ona vodiysidagi mavjud METHlar tarmog'ini ekologik karkas darjasida takomillashtirish uchun baholash ishlariga kompleks yondashuv talab etiladi. Shu bois, xalqaro va milliy loyihalarda qo'llanilgan mezon va tamoyillarga asoslanib, Farg'ona vodiysiga mos keladigan mezon va usullarni takomillashtirishga e'tibor qaratildi. Bunday yondashuvda METHlar tizimini takomillashtirish bo'yicha baholash jarayoni ikkita obyektga nisbatan o'tkaziladi:

1. METHlar tizimiga tarkibiy tuzilishi murakkab, ko'p qirrali va dinamik rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan hududiy obyekt sifatida qaraladi. Chunki, METHlar tizimi funksional jihatdan bir-birini to'ldiruvchi markaziy yadro, ekologik qayta tiklanish hududlari, ekologik yo'lak va himoya zona kabi elementlardan tuzilgan bo'lib, o'ziga xos ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish imkoniyatiga egadir.

2. Tipik va noyob geokomplekslarni METH sifatida baholashda geokompleksning etalon sifatidagi darjasasi, tabiiy geokomplekslar va komponent xilma-xilligini saqlanganlik ko'rsatkichi,

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyundagi «2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologic xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 484-soni Qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4372839>

biologik turlarga boyligi, landshaftlarning ekologik holati hamda landshaft reprezentativligining umumiy indeksi aniqlanadi. Bunday baholash obyekti turli darajadagi tarqoq obyekt va hududlarni o'zida birlashtirish hamda yangi METHlarni tashkil etish hisobiga tizimning tarkibini funksional jihatdan takomillashtirishga imkon beradi.

METHlarning milliy tizimi mamlakatdagi tipik, noyob va etalon geokomplekslarni (shu jumladan, tarixiy madaniy landshaftlarni) o'z ichiga olgan landshaft xilma-xilligini to'liq aks ettirishi kerak. Bu landshaft xilma-xilligini saqlab qolish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim bo'lgan geografik hodisa va jarayonlarning optimal me'yorni ta'minlash imkonini beradi. Shu bois, mintaqada tabiat-qo'riqxona fondini tashkil etuvchi er toifalarini optimal nisbatini saqlab turish muhim ahamiyatga egadir.

METHlar tizimining reprezentativligini ta'minlash ekologik karkas konsepsiyasidagi asosiy talablardan biri hisoblanadi. METHlar tizimining reprezentativlik darajasini baholashda dastlab qamrab olish ko'rsatkichi, ya'ni mintaqaning tabiiy, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlardan kelib chiqib optimal maydon kattaligi aniqlab olinadi [7, 11, 12]. METHlarning egallagan maydoni mintaqaning yovvoyi tabiatni, BLXni, genofondi, madaniy meros va rekreatsion resurslarning saqlanganlik darajasini indikatori bo'lib, uzoq muddatli ekologik barqarorlikni kafolatlaydi.

Qamrab olish ko'rsatkichning qiymati tabiat bilan jamiyat o'tasidagi munosabatlarda ekologik havfsizlikni ta'minlanishini kafolatlaydigan darajada bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda METHlarning maydon kattaligi bo'yicha optimal me'yorni belgilashda turli tavsiyalar keltirilgan. Masalan, IV-Butun Juhon milliy bog'lar Kongresida (1992) METHlarni qamrab olish darajasi uchun optimal me'yor 10 % belgilangan. Biologik xilma-xillik(BX)ni saqlab qolish bo'yicha 2011–2020 yillarda uchun qabul qilingan Ayt strategik rejasida METHlarning ulushi 17% qabul qilingan. Respublikamizda ham METHlarning qamrab olish darajasini tahlil qilishda 17 % ko'rsatkich asos bo'lib xizmat qiladi. Qamrab olish darajasini baholash METHlarning I–IV toifalarini (davlat qo'riqxonasi, landshaft buyurtma qo'riqxonasi, tabiat bog'lari, tabiat yodgorliklari va buyurtma qo'riqxonalari)ga tegishli maydon ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. METHlarni qamrab olish darajasi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$METH_{kod} = \frac{S_{METH(I-IV)}}{S_m} \times 100\% \quad (1)$$

bu erda: $METH_{kod}$ —qamrab olish darajasi; $S_{meth(I-IV)}$ —ma'muriy-hududiy birliklar (tuman, viloyat) yoki tabiiy geografik rayon(TGR)lardagi METHlarning I–IV toifalariga tegishli maydon ko'rsatkichlari; S_m —ma'muriy-hududiy birlik yoki TGRning umumiy maydoni.

METHlar tizimining reprezentativligi, BLXni va ekologik muvozanatni saqlab turishdagi samaradorligi tizim elementlarini to'liqligi va yaxlitligi bilan belgilanadi. METHlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari tabiiy geografik komplekslarni saqlanganlik (K_{tgs}) hamda tabiatni muhofaza qilish maqomiga ega obyektlar bilan ta'minlanganlik (K_{tgs}) darajalariga bog'liqligi M.N.Brilevskiy, N.V.Gagina, E.V.Morozov (2009), S.M.Tokarchuk (2016) va boshqalarning tadqiqot ishlarida asoslab berilgan. Bu boradagi ko'rsatkichlarini (K_{tgs} , K_{METH}) aniqlashda quyidagi baholash usullaridan foydalanildi:

1. Tabiiy geokomplekslarni saqlanganlik koeffitsienti (K_{tgs}). K_{tgs} hisoblab chiqishda tabiiy geografik komplekslarni bilan bog'liq er toifalarining maydon kattaligi ma'lumotlardan foydalilanadi. Mazkur ma'lumotlar Farg'ona vodiysi (O'zbekiston Respublikasiga qarashli qismi) ma'muriy-hududiy birliklarning 2022-yildagi er balansi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqiladi (1-jadval). Er resurslaridan foydalinish va nazarat qilish ma'muriy-hududiy birliklar doirasida amalga oshirilganligi sababli, K_{tgs} baholash ma'muriy hududiy birliklar doirasida amalga oshirilishi amaliy ahamiyatga egadir. K_{tgs} quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$K_{tgs} = (2S_{tabland} + 1,75S_{o'm} + 1,5S_{tabsuv} + S_{yaylov}) / S_{umum} \quad (2)$$

bu erda: $S_{tabland}$ —tabiiy landshaftlar (zahira erlar), $S_{o'm}$ —o'rmonlar va ko'p yillik daraxtzorlar, S_{tabsuv} —tabiiy suv obyektlari (daryo, soy va ko'llar), S_{yaylov} —yaylov va pichanzorlar, ixotazor va terakzorlar. S_{umum} —mintaqaning umumiy maydoni.

Ekologik karkas tarkibini tashkil etuvchi er fondining asosiy toifalari va turlari

| No | Yerdan foydalanish turlarini | BLXni saqlab qolishdagi ahamiyati bo'yicha |
|--|---|--|
| Demoiqtsodiy karkasni tashkil etuvchi er toifalari | | |
| 1 | Ijtimoiy bino erlari, imorat bilan band erlar, meliorativ qurilish holatidagi erlar, ijtimoiy hovli, ko'cha va maydon yo'llari. | Mavjud emas |
| 2 | Qishloq xo'jaligi va tomorqalardagi ekin erlari, bo'z erlar. | Juda past |
| 3 | Suv ostidagi erlar (suv omborlar va suv xavzalari, kanal, kollektor va zovurlar), bog' va sabzovotchilik uyushmalari erlari. | Past |
| Tabiat qo'riqxona fondini (tabiat karkasi) tashkil etuvchi er toifalari | | |
| 4 | Ko'p yillik daraxtzorlar, METHlarning VI toifasiga qarashli erlar | Nisbatan yuqori |
| 5 | YAylovlar, pichanzorlar, ixotazor va terakzorlar, METHlarning V toifasiga qarashli erlar. | YUqori |
| 6 | METHlar (1-IV toifalari), tabiiy landshaftlar, suv ostidagi erlar (daryo, soy va ko'llar), o'rmonlar va zahira erlar . | Juda yuqori |

Jadval mualliflar tmonidan tavsiya qilingan.

2. METHlarning toifalari va turlari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{METH}). K_{METH} ma'muriy tumanlar yoki geografik rayonlar bo'yicha METHlarning I-IV toifalari va turlariga tegishli ko'rsatkichlarni (respublika, viloyat va mahalliy) hisoblab chiqish orqali aniqlanadi. Respublika ahamiyatiga ega METHlar to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining METHlar reestridan, mahalliy ahamiyatga ega METHlar to'g'risidagi ma'lumotlar esa O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining viloyatlardagi bo'limlaridan olinadi. Bunday baholash natijasida qanday toifadagi METHlarni tashkil etish zaruriyati va ular uchun talab etilgan maydon kattaligini ham aniqlash mumkin. K_{METH} quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$K_{METH} = (2 S_I + 1,5S_{II} + (1 + 0,01n) S_{III} + 0,5S_{IV}) / S_{umum} \quad (3)$$

bu erda: S_I -davlat qo'riqxonasi, landshaft buyurtma qo'riqxonasi va biosfera rezervatlari (Ia, Ib); S_{II} -milliy bog' va tabiat bog'lari (II), buyurtma qo'riqxonasi, o'rmon xo'jaliklari, tabiat pitomniklari (IV); S_{III} -respublika ahamiyatiga ega tabiat yodgorliklarining maydonlari (III); n-respublika ahamiyatiga ega tabiat yodgorliklarini soni; S_{IV} -mahalliy ahamiyatga ega tabiat yodgorliklarining maydoni (III); S_{umum} - ma'muriy birlik yoki TGRning umumiy maydoni.

Ma'muriy birliklar doirasida K_{tgs} va K_{METH} baholash natijalari quyidagi 5 ta guruhga ajratiladi: 0-0,50 juda past, 0,51-1.0 gacha past, 1,1-2.0 gacha o'rtta, 2,1-3.0 gacha yuqori, $3 \leq$ bo'lsa, juda yuqori. K_{tgs} o'rganilayotgan hududda muayyan kattalikdagi etalon hududlarni aniqlash, ular o'rtasidagi yaxlitlikni ta'minlash va yangi METHlarni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUXOKAMA. METHlar tizimining yaxlitligi va to'liqligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar tabiiy geografik rayonlar bo'yicha, ekologik karkas sifatida takomillashtirish masalalari esa, ma'muriy hududiy birliklari doirasida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvda quyidagi afzalliklar mavjud: birinchidan, tabiat xilma-xilligining barcha ko'rsatkichlari nisbatan METHlar tizimining reprezentativligi ta'minlanadi; ikkinchidan, ma'muriy hududiy birliklari doirasida METH tizimini takomillashtirish bo'yicha berilgan tavsiyalarni davlat tomonidan amaliyatga tadbiq etilishi uchun qulayliklar yaratiladi [9, 10].

METHlarning yaxlit tizimi viloyatlar va tumanlardagi muhofazaga olingan hududlar yig'indisidan tashkil topadi. Bugungi kunga kelib, METHlarning I - IV toifalari bo'yicha qamrab olish darajasi O'zbekiston Respublikasining hududiga nisbatan 14,08%ni tashkil etadi. O'zbekistondagi mavjud METHlar tarmog'ining tarkibi tabiiy geografik rayonlar va viloyatlar kesimida tahlil qilinganda, ular o'rtasida katta tafovutlar borligi aniqlandi. Masalan, METHlarning (I-IV) maydoni Toshkent viloyati (37,5%) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (22.2%) respublikanining o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriligi bilan xarakterlanadi (2-jadval).

Respublikamizda ekologik karkasning yadrosini tashkil etuvchi METHlarning ulushi 11,41%ga teng bo'lib, biosfera rezervati 0.24 %, davlat qo'riqxonasi 0.49%, landshaft buyurtma qo'riqxonasi 1,40% va tabiat bog'lari 9,48%ni tashkil etadi. Bu borada, tabiat bog'larining maydon

kattaligi optimal darajadaligi bilan ajralib turadi. Tabiat bog'larining faoliyati asosan, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Namangan, Xorazm, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida yo'lga qo'yilgan (2-jadval). Respublika axamiyatiga ega bo'lgan tabiat yodgorliklari asosan, Farg'ona, Namangan, Xorazm, Buxoro va Toshkent viloyatlarida tashkil etilgan. Buyurtma qo'riqxonalarining maydoni esa 2,4%ga teng bo'lib, Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Xorazm, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tashkil etilmagan. Respublikamizda o'rmon xo'jaliklari (20,7%) deyarli barcha viloyatlarda tashkil etilgan bo'lib, ayniqsa, sug'oriladigan erlar atrofidagi ixotazorlarning barcha viloyatlarda mavjudligi respublika miqyosida ekologik yo'larlarning yaxlitligini ta'minlash imkonini beradi (2-jadval).

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, METHlarning maydoni va toifalari tarkibi bo'yicha eng past ko'rsatkich Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida aniqlandi. Farg'ona viloyatida qo'riqxona rejimiga ega bo'lgan 5 ta tabiat yodgorligi («Yozyovon cho'llari», 1735.19 ga; «Markaziy Farg'ona», 142.5 ga; «Akbarobod qumlari», 39.5 ga; «Zilha qumlari», 22.2 ga; «Bo'stonbuva qumlari», 8.5 ga) tashkil etilgan (2-javdal).

O'zbekiston Respublikasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlari viloyatlar kesimidagi ulushi

| Ma'muriy hududiy biriklar | Maydoni (ga) | METHlarning toifalari (ga) | | | | | | | | | | METHlarning umumiy maydoni | Viloyatlar maydoniga nisbatan % xisobida | |
|-------------------------------|--------------|----------------------------|-----------------------------------|-----------------|-----------------------------|--|-------------------------|--------------------|--------------------------|-----------------------------------|---|---|--|------|
| | | Davlat qo'riqxonalari | Majmuu (landshaft) buyurtmaxonasi | Tabiat bog'lari | Davlat tabiat yodgorliklari | Ayrim tabiiy ob'ektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiflash uchun mo'ljallangan hududlar | Buyurtma qo'riqxonalari | Tabiiy pitomniklar | Ov va baliq xo'jaliklari | Muhofaza etiladigan landschaftlar | Ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun | Davlat biosfera rezervatariya milliy bog'lari | METHlarning I, II, III va IV toifalari bo'yicha, % | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 16659000 | - | 628300 | 2447143 | | 560507 | | 3066000 | - | 4357787 | 68717,8 | 22,2 | 11128455 | 66,8 |
| Andijon | 430200 | - | | | | | | 8338,7 | 32139,7 | 3867 | | | 44300,4 | 10,2 |
| Buxoro | 4032000 | 1511 | | | 169,5 | 96200 | 16522 | 54000 | - | 596997 | | 2,4 | 765399,5 | 18,9 |
| Farg'ona | 676000 | - | | | 1947,9 | | | 9769 | 47995,5 | 14564 | | 0,2 | 74295,05 | 10,4 |
| Jizzax | 2120000 | 44592 | | 24110 | | 63300 | | 40000 | 41416,5 | 185844 | | 6,2 | 399262,5 | 18,8 |
| Namangan | 744000 | - | | 10000 | 1096 | | | 45472 | 52488,2 | 13363 | | 1,5 | 122419,2 | 16,4 |
| Navoiy | 11099000 | 40000 | | 1200000 | | 40420 | | 95000 | 4900 | 2894580 | | 11,5 | 4274900 | 38,5 |
| Qashqadaryo | 2858000 | 78986 | | 3938 | | 264469 | | 40000 | 63482 | 276115 | | 12,2 | 726990 | 25,4 |
| Samarkand | 1677000 | - | | 3926,4 | | 56500 | | 84800 | 50267,2 | 27384 | | 3,6 | 222877,6 | 13,2 |
| Sirdaryo | 427600 | - | | | | | | 62045 | - | 8057 | | | 70102 | 16,3 |
| Surhondaryo | 2010000 | 23802 | | 39915 | | | | 51000 | 79425 | 300231 | | 3,2 | 494373 | 24,5 |
| Toshkent | 1530000 | 24706 | | 506941 | 43 | | | 324575 | 18399,4 | 547682 | 42952,8 | 37,5 | 1465299,2 | 95,7 |
| Toshkent SH | 30000 | - | | | | | | - | - | - | | | 0 | 0 |
| Horazm | 605000 | 8800 | | 21687,5 | 470 | | | 157 | - | 78586 | | 5,1 | 109700,5 | 18,1 |
| Jami | 44897000 | 222397 | 628300 | 4257660,9 | 3311,7 | 1081426 | 16522 | 3842882 | 331355,1 | 9300909 | 111670,6 | 6304736,2 | 19887734 | 44,3 |
| | 100% | 0,49% | 1,40% | 9,48% | 0,01% | 2,4% | 0,04% | 8,50% | 0,73% | 20,70% | 0,25% | 14, 04% | | |

Jadval O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining ma'lumotlari (2022) asosida tuzilgan.

Namangan viloyatidagi METHlar tarmog'ining tarkibi 1 ta tabiat bog'i (Pop MTB, 10 000 ga) 2 ta tabiat yodgorligidan («Chust», 96 ga; «Mingbuloq», 1000 ga) iborat. Andijon viloyatida mahalliy darajadagi tabiat yodgorliklarini (botanik) tashkil etish bilan cheklanib qolingga. METHlar asosan, Qurama va Markaziy Farg'ona tabiiy geografik rayon(TGR)lariiga to'g'ri keladi. Qolgan TGRlarda BLXni saqlab qolishda muhim bo'lgan asosiy METHlarning (I-IV) toifalari tashkil etilmagan. METHlarning toifalari bo'yicha tarkibi, egallagan maydoni va landshaftlar bo'yicha tahlili ularni ekologik karkas talablariga to'liq javob bermasligini hamda METHlar juda tarqoq holatda ekanligini ko'rsatadi.

METHlarning barcha toifalarini qamrab olish ko'rsatkichi Namangan viloyatida 16,4%, Farg'ona viloyatida 10,6 % va Andijon viloyatida 10,2% tashkil etadi. Lekin, Farg'ona vodiysida BLXni muhofaza qilish va qayta tiklashda muhim bo'lgan davlat qo'riqxonasi, landshaft buyurtma qo'riqxonasi, buyurtma qo'riqxonalar tashkil etilmagan. Shu bois, ma'muriy birliklar va TGRlar bo'yicha METHlar maydonini 17%ga etkazish bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Mazkur viloyatlarda METHlarning barcha toifalarini optimal tanlash va tashkil etishga alohida e'tibor qaratish erishish zarurdir.

Ekologik karkasni yadrosini tashkil etuvchi METHlarning tarkibi tumanlar kesimida Yozyovonda 4,8%, Pop tumanida 3.4%, Mingbuloqda 1,3%, Qo'shtepada 0,3%, CHustda 0,1%, Quva 0.09%, Oltiariq 0,05% va Buvayda 0.02%ga teng (3-jadval). METHlarning barcha toifalarining egallagan maydoni bo'yicha farqlar ham katta bo'lib, Marxamat, Oltinko'l, Dang'ara, Beshariq, O'zbekiston, Yozyovon, Farg'ona, Jalaquduq va Uchi tumanlarida 17 % dan yuqori. Eng yuqori ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (92.7%) va Xo'jaobod (52,14%) tumanlariga to'g'ri keladi. Mazkur tumanlarda suvni muhofaza qilish zonalari, er usti va er osti suvlari hosil bo'lish zonalari, baliq va ov xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, ularda tabiatni muhofaza qilish va foydalanishda qo'riqxona rejimi yuritilmaydi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tumanlar va shaharlar bo'yicha egallagan maydoni (2022 yil)

| № | Ma'muriy hududiy birliklar | Maydoni (ga) | METHlarning toifalari va turlari, ga | | | | | | Jami | IUCN bo'yicha* | Qamrab olish darajasi, % | K _{METH} |
|-----------------------------|-------------------------------|-----------------|--------------------------------------|------|--------|-------|-----------------|--------|--------|-------------------|-----------------------------|-------------------|
| | | | MTB | DTYO | SMZ | O'X | EU va EOSHBZ | BOX | | | | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| Namangan viloyati bo'yicha: | | | | | | | | | | | | |
| 1 | Kosonsoy | 52234 | | | | 587 | | | 587 | 0 | 1,12 | juda past |
| 2 | Mingbuloq | 74070 | | 1000 | 1763,1 | 3993 | | | 6756,1 | 1,35 | 9,12 | past |
| 3 | Namangan | 20506 | | | 1901,8 | 110 | | 64 | 2075,8 | 0 | 10,12 | juda past |
| 4 | Norin | 20715 | | | 1917,8 | 309 | | | 2226,8 | 0 | 10,74 | juda past |
| 5 | Pop | 290968 | 10000 | | 4801 | 6524 | | 375 | 21700 | 3,43 | 7,45 | o'rta |
| 6 | To'raqo'rg'on | 27403 | | | 1895,6 | 260 | | | 2155,6 | 0 | 7,86 | juda past |
| 7 | Uychi | 30444 | | | 1902,4 | 352 | 5685 | | 7939,4 | 0 | 26,07 | juda past |
| 8 | Uchqo'rg'on | 29974 | | | 1328,4 | 384 | | | 1712,4 | 0 | 5,71 | juda past |
| 9 | CHortoq | 37527 | | | 221 | 4192 | 170 | 4583 | | 0 | 12,21 | juda past |
| 10 | CHust | 93749 | | 96 | 250,3 | 331 | 22664,8 | 44822 | 68164 | 0,1 | 72,7 | juda past |
| 11 | Yangiqo'rg'on | 53174 | | | 284 | 4186 | 41 | 4511 | | 0 | 8,48 | juda past |
| 12 | Namangan sh. | 13180 | | | 8 | | | | 8 | 0 | 0,06 | juda past |
| | Jami: | 743944 | 10000 | 1096 | 15760 | 13363 | 36727,8 | 45472 | 122419 | 11096 | 122419,2 | |
| | | 100 | 1,34 | 0,14 | 2,11 | 1,79 | 4,93 | 6,11 | 16,40% | 1,48% | 16,40% | |
| Andijon viloyati bo'yicha: | | | | | | | | | | | | |
| 1 | Andijon | 36915 | | | 869,1 | 240 | | 383,4 | 1492,5 | 0 | 4,04 | juda past |
| 2 | Asaka | 28300 | | | | 190 | | | 190 | 0 | 0,67 | juda past |
| 3 | Baliqchi | 33892 | | | 2032,9 | 285 | | 650,4 | 2968,3 | 0 | 8,75 | juda past |
| 4 | Bo'ston | 20047 | | | | 424 | | | 424 | 0 | 2,11 | juda past |
| 5 | Buloqboshi | 18896 | | | | 227 | | | 227 | 0 | 1,2 | juda past |
| 6 | Jalaquduq | 36865 | | | 666 | 160 | 8257,5 | 237,8 | 9321,3 | 0 | 25,28 | juda past |
| 7 | Izboskan | 28254 | | | 355,9 | 386 | | 123,6 | 865,5 | 0 | 3,06 | juda past |
| 8 | Ko'rg'ontepa | 47524 | | | 779,5 | 556 | 1683 | 6182,2 | 9200,7 | 0 | 19,36 | juda past |
| 9 | Marxamat | 30536 | | | | 98 | 4079 | | 4177 | 0 | 13,67 | juda past |
| 10 | Oltinko'l | 22170 | | | 971,4 | 120 | | 307,4 | 1398,8 | 0 | 6,3 | juda past |
| 11 | Paxtaobod | 25999 | | | 533,5 | 75 | | 217 | 825,5 | 0 | 3,17 | juda past |
| 12 | Ulug'nor | 35669 | | | 445,2 | 662 | | 96,5 | 1203,7 | 0 | 3,37 | juda past |

ILOVA TO'PLAM: GEOGRAFIYA

jadvalni davomi

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
|----------------|--------|---|-------|--------|-------|---------|--------|--------|-------|-----------|----|
| 13 Xo'jaobod | 22886 | | | 39 | 11284 | | 11323 | 0 | 49,47 | juda past | |
| 14 Shaxrixon | 33458 | | | 92 | | | 92 | 0 | 0,27 | juda past | |
| 15 Xonobod sh. | 2338 | | 133,2 | 125 | | 140,4 | 398,6 | 0 | 17,04 | juda past | |
| 16 Andijon sh. | 6554 | | | 188 | | | 188 | 0 | 2,86 | juda past | |
| Jami: | 430303 | 0 | 0 | 6836,2 | 3867 | 25303,5 | 8338,7 | 44300 | 0 | 44300,4 | |
| | 100 | 0 | 0 | 1,58 | 0,89 | 5,88 | 1,93 | 10,20% | 0% | 10,20% | |

Farg'ona viloyati bo'yicha:

| | | | | | | | | | | | |
|-----------------|---------------|----------|---------------|--------------|--------------|----------------|-------------|---------------|----------------|-----------------|-----------|
| 1 Bag'dod | 42095 | | - | 450,4 | 355 | - | - | 805,4 | 0 | 1,91 | juda past |
| 2 Beshariq | 78533 | | - | 1874,6 | 2616 | 2195,9 | 4485,0 | 11172 | 0 | 14,22 | juda past |
| 3 Buvayda | 32562 | | 8,5 | 40,5 | 136 | - | - | 185 | 0,02 | 0,56 | juda past |
| 4 Dang'ara | 45802 | | - | 1480,1 | 4508 | - | 384 | 6372,1 | 0 | 13,91 | juda past |
| 5 YOzyovon | 35937 | | 1735,2 | 867,1 | 2407 | - | 2500 | 7594,5 | 4,82 | 21,13 | o'ita |
| 6 Oltiariq | 40090 | | 22,22 | 1459,6 | 532 | | - | 2013,8 | 0,05 | 5,02 | juda past |
| 7 Kushtepa | 39947 | | 142,5 | 833,3 | 938 | - | - | 1913,8 | 0,35 | 4,79 | past |
| 8 Rishton | 42179 | | | 729,7 | 314 | - | - | 1043,8 | 0 | 2,47 | juda past |
| 9 So'x | 22073 | | | - | 168 | - | - | 168 | 0 | 0,76 | juda past |
| 10 Toshloq | 28040 | | | 639 | 149 | - | - | 788,5 | 0 | 2,81 | juda past |
| 11 Uchko'prik | 37226 | | | - | 188 | 3264,9 | - | 3452,9 | 0 | 9,27 | juda past |
| 12 Farg'ona | 61270 | | | 473,2 | 143 | 12427 | - | 13044 | 0 | 21,28 | juda past |
| 13 Furqat | 30433 | | | 424,5 | 971 | - | - | 1395,5 | 0 | 4,58 | juda past |
| 14 O'zbekiston | 77011 | | | - | 726 | 13649 | - | 14375 | 0 | 18,66 | juda past |
| 15 Quva | 43678 | | 39,5 | 2029,7 | 117 | - | 2400 | 4586,2 | 0,09 | 10,5 | juda past |
| 16 Farg'ona sh | 10520 | | | 45,6 | 173 | - | - | 224,12 | 0 | 2,13 | juda past |
| 17 Quvasoy sh | 25467 | | | 394,1 | 88 | 4609,6 | - | 5091,7 | 0 | 19,99 | juda past |
| 18 Marg'ilon sh | 3888 | | | 34,4 | 35 | - | - | 69,4 | 0 | 1,78 | juda past |
| 19 Qo'qon sh | 3710 | | | - | - | - | - | 0,07 | 0 | 0,001 | juda past |
| Jami | 675900 | 0 | 1947,9 | 11849 | 14564 | 36146,4 | 9769 | 74295 | 1947,91 | 74295,05 | |
| | 100 | 0 | 0,29 | 1,69 | 2,079 | 5,1 | 1,39 | 10,60% | 0,29% | 10,60% | |


* IUCN bo'yicha I, II, III va IV toifalar hamda muhofaza qilinadigan o'rmonlar alohida baholanishini e'tiborga olindi.

MTB—milliy tabiat bog'i; DTYO—davlat tabiat yodgorligi; SMZ—svuni muhofaza qilish zonalari; O'X—o'rmon xo'jaliklari; EU va EOSHBZ—er usti va er osti suvlari hochil bo'lish zonalari; BOX—baliq va ov xo'jaliklari. KMETH i-METHlar bilan ta'minlanganlik koefitsenti va tizim sifatida takomillashtirish imkoniyati.

Yuqoridagi natijalar, Farg'ona vodiysida METHlar tizimini va uni tarkibini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi. CHunki, K_{METH} bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich Pop tumanida (1,60), past ko'rsatkich Mingbuloq (0,60), YOzyovon (0,60) va Kushtepa (0,51) tumanlarida aniqlangan bo'lib, kolgan barcha tumanlarda juda pastligi bilan izohlanadi (3-jadval). Farg'ona vodiysining (O'zbekiston qarashli qismi)da tabiiy geokomplekslarni saqlanganlik (K_{tgs}) darajasi 0,04–1.32 oralig'ida aniqlandi. Farg'ona vodiysida K_{tgs} me'yor doirasi bo'lib, juda yuqori: So'x, Pop, O'zbekiston; yuqori: YAngiqo'rg'on, CHust: o'rta: Farg'ona, CHortoq, Xo'jaobod, Beshariq va Kosonsoy tumanlarida kuzatiladi (1-rasm). K_{tgs} juda yuqori va yuqori qiymatlarga ega bo'lgan tumanlarda METHlarning I- IV toifalarini tashkil etish imkoniyatini yuqori baholash mumkin.

Farg'ona vodiysining o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olgan xolda K_{tgs} past va juda past ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlarda ayrim er toifalarini, xususan, meliorativ qurilish holatidagi erlar, bo'z erlar, iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan erlar va zahira erlarni yangi METHlarni tashkil etish yoki mavjudlarini kengaytirishda foydalanish uchun tavsiya etildi. Bu yondashuv orqali maydoni 10 gektardan 10 000 gektargacha va undan katta bo'lgan qo'riqxona rejimiga ega (tabiat yodgorliklari, mikroqo'riqxona, tabiat bog'i, davlat qo'riqxonasi) METHlarni tashkil etish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rindan, landshaft va biologik xilma-xillik ko'rsatkichini qamrab olish ko'rsatkichi ma'muriy-hududiy birliklar va TGRlar bo'yicha optimal darajada emas. SHu bois, Farg'ona vodiysida METHlarning mayjud tarmog'ini tizim darajasida shakllantirishda geoekologik yondashuv zarurligi asoslandi va takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.



1-rasm. Farg'ona vodiysi ma'muriy tumanlarining tabiiy geokomplekslarni saqlanganlik darajasi

XULOSA

Hozirgi vaqtda respublika hududining umumiyligi maydoniga nisbatan METHlarning 14 % dan yuqori bo'lib, umuman olganda, mamlakat darajasi uchun optimal hisoblanadi. Lekin, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida bo' ko'satkich juda pastligi bilan xarakterlanmoqda. METHlar tizimini takomillashtirish minitaqadagi geoekologik holatini yaxshilashning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Farg'ona vodiysidagi mavjud METHlar tarmog'ini tizim darajasida takomillashtirishda quyidagi muammolar aniqlandi: TGRlardagi tipik landshaftlarni muhofaza qilishning qattiq rejimiga ega bo'lgan METHlarning asosiy toifalarining etarli daraja tashkil etilmagan; ekologik karkasning markaziy yadrosini tashkil etuvchi METHlar tarkibida qo'riqxona rejimiga ega bo'lgan tabiat yodgorliklarining ustunligi; qamrab olish ko'satkichi meyor darajasida emasligi va boshqalar.

Shu bois, ma'muriy-tumanlar kesimida er toifalari va erdan foydalanuvchilarni tahlil qilish orqali har-bir tumanda METHlarni tashkil etish imkoniyatlarini baholashga e'tibor qaratildi. METHlarning mavjud tarmog'ini takomillashtirish uchun K_{tgs} yuqori ko'satkichiga ega bo'lgan tumanlarda BLX bilan bog'liq noyob hududlarni aniqlash va ularga METH maqomini berish bo'yicha tadqiqotlarni yo'lga qo'yish zarurdir.

Farg'ona vodiysidagi mavjud METHlarning tarmog'ining qamrab olish darajasi ekologik barqarorlikni ta'minlash va BLXni saqlash imkoniyati pastligi bilan xarakterlanmoqda. Farg'ona vodiysida TQFin 17 % gacha kengaytirish imkoniyati past va juda past bo'lgan tumanlarda geoekologik holatni yaxshilash va noyob tabiiy obyektlarni saqlab qolish uchun maydoni 10 getkardan 500 ga teng bo'lgan qo'riqxona rejimidagi mikroqo'riqxonalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, er usti va er osti suvlari hosil bo'ladigan hududlar va suvni muhofaza qilish zonalarini yanada takomillashtirish, ularda qo'riqxona rejimida muhofaza qilinadigan yadro hududlarni ajratish, ekologik yo'laklarni kengaytirish talab etiladi.

METHlarning mavjud tarmog'i uzoq yillar davomida Farg'ona vodiysida BLXni saqlash va gayta tiklash imkoniyatiga ega emas. METHlarning mavjud tarmog'ini optimallashtirish yo'nalishlaridan biri tabiat-qo'riqxona fondi tarkibini kengaytirishdir. Shu bois, Farg'ona vodiysida METHlarning asosiy toifalari ulushini 12%ga etkazish uchun Namanganda 10,5%, Farg'onada 11,8% va Andijonda 12,0% er uchastkalarni ajratish hamda davlat kadastriga kiritilishini ta'minlash zarur. Istiqboldagi METHlar tizimini 2 ta davlat qo'riqxonasi, 5 ta milliy tabiat bog'i, 6 ta buyurtma qo'riqxonasi, 5 ta mikroqo'riqxona tashkil etish orqali takomillashtirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Блакберн А.А., Калинихин О.Н. Оценка миграционного потенциала экологической сети Александровского района (Донецкой области) // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Естественные науки. 2018. Т. 42, № 2. -С. 231–245.
2. Брилевский М.Н., Гагина Н.В., Морозов Е.В. Геоэкологическая оценка природоохранного потенциала физико-географических регионов Беларуси. Вестник БГУ. Сер. 2. 2009. № 2. –С. 88-93.
3. Иванов А.Н. Ландшафтно-экологический подход к организации систем охраняемых природных территорий // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 5: География. №. 3, 1998. -С. 16-28.
4. Конференция Сторон Конвенции О Биологическом Разнообразии. Четырнадцатое Совещание. Шарм-Эш-Шейх, Египет, 17-29 ноября 2018. <https://www.cbd.int/doc/c/adcd/e477/bc299373206ace98b4cc96d2/cop14-14-ru>.
5. Кревер В.Г. Особо охраняемые природные территории России: современное состояние и перспективы развития. –М.: «Орбис Питкус», 2009. –455 с.
6. Пан-Европейская стратегия сохранения биологического и ландшафтного разнообразия (ПЕС). - Н.Новгород: Изд. экол. центра "Дронт": Изд. Центра охраны дикой природы, 1997. - 77 с.
7. Реймерс Н.Ф., Штильмарк Ф.Р. Особо охраняемые природные территории. -М.: Мысль, 1978. -298 с.
8. Санников П.Ю. Сеть особо охраняемых природных территорий Пермского края: современное состояние и перспективы развития: Диссер. ... канд. геогр. наук / –П., 2014. – 207 с.
9. Соболев Н.А. Формирование панъевропейской экологической сети в России // Экологические сети – опыт и подходы: материалы конференции. –Кишинев: BIOTICA, 2012. -С. 27–33.
10. Соловьев А.Н. Заповедание территорий в аспекте природопользования. -М.: Товарищество научных изданий КМК, 2020. -250 с.
11. Стишов М.С. Методика оценки природоохранной эффективности особо охраняемых природных территорий и их региональных систем. – М.: WWF/ России, 2012. -284 с.
12. Стишов М.С., Дадли Н. Охраняемые природные территории Российской Федерации и их категории. –М.: Всемирный фонд дикой природы (WWF). 2018. -248 с.
13. Тишков А.А. «Характерное пространство» и «характерное время» как ключевые категории биogeографии // Известия РАН. Серия географическая, 2016. - № 4. -С. 21-33.
14. Тишков А.А. Развитие географической сети заповедных территорий России // География и природные ресурсы. 2017. -№ 3. -С. 13-21.

-
15. Токарчук С.М. Геоэкологическая оценка природоохранного потенциала административных районов Беларуси (как один из методов оценки репрезентативности сети особо охраняемых природных территорий) // Псковский регионалогический журнал. – 2016. № 3 (27). -С. 31-45.
 16. Хибухина Т.Ю. Геоэкологическая оценка особо охраняемых природных территорий Ростовской области: Диссер. ... канд. тех. наук / -Р., 2018. -206 с.
 17. Хокингс М., Столтон С., Дадли Н.. Оценка эффективности. Подходы к оценке деятельности особо охраняемых природных территорий. –М.: МСОП, 2003. -88 с.
 18. Чибилёв А.А. Краткая история формирования и современное состояние сети природных резерватов на Урале / А.А.Чибилёв, А.В.Шакиров, А.А.Чибилёв // Проблемы региональной экологии. 2012. № 3. - С. 145-149.
 19. Чибилёв А.А., Краснова Т.В.. Актуальные страницы истории заповедного дела на территории россии и сопредельных стран. // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. 2013. Т. 15, № 3(7). - С. 2080-2087.